

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.B.01.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BIOFIZIKA VA BIOKIMYO INSTITUTI**

NURMATOVA SAIDA BAXTIYAROVNA

**DORI PREPARATLARIGA SEZUVCHANLIKNING MOLEKULAR-
GENETIK VA METABOLIK MARKERLARI TAVSIFI**

03.00.01 – Biokimyo

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Nurmatova Saida Baxtiyarovna

Dori preparatlariga sezuvchanlikning molekulyar-genetik va metabolik markerlari tavsifi3

Нурматова Саида Бахтияровна

Характеристика молекулярно-генетических и метаболических маркеров чувствительности к лекарственным препаратам21

Nurmatova Saida Baxtiyarovna

Characterization of molecular-genetic and metabolic markers of sensitivity to drugs39

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.B.01.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BIOFIZIKA VA BIOKIMYO INSTITUTI**

NURMATOVA SAIDA BAXTIYAROVNA

**DORI PREPARATLARIGA SEZUVCHANLIKNING MOLEKULAR-
GENETIK VA METABOLIK MARKERLARI TAVSIFI**

03.00.01 – Biokimyo

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/B384 raqami bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida www.ibb-nuu.uz va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dalimova Dilbar Akbarovna
biologiya fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Dalimova Surayyo Nugmanovna
biologiya fanlari doktori, professor

Ubaydullayeva Xurshida Abdullayevna
biologiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.B.01.13 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « » soat dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 174-uy, Tel.: (99871) 246-68-96.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti huzuridagi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 174-uy, Tel.: (99871) 246-68-96. E-mail: ibb-nuu@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « » kuni tarqatildi.
(2023 yil « » dagi raqamli reyestr bayonnomasi).



Sabirov Ravshan Zairovich

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

Pozilov Ma'murjon Komiljonovich

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d.

Kadirova Dilbar Abdullayevna
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda zamonaviy tibbiyotning eng jiddiy muammolaridan biri bu ratsional terapiya (samarali va xavfsiz dori terapiyasi) hisoblanadi. Nashr etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, bemorlarning 30-60 foizida dori-preparatlarini tavsiya etilgan dozasi va qabul qilish tartibi samarasiz kechgan, ularning 30 foizida esa salbiy reaksiyalar kuzatilgan. Yiliga AQSHdagi shifoxonalarda bemorlarning 6,7 foizida (2mln 216 ming) o'lim kuzatilgan bo'lib, ularning 0,32 foizi (106 ming) dori-preparatlarning salbiy reaksiyalari natijasida halok bo'lgan. Dori preparatlarining salbiy ta'siridan o'lim holatlari barcha o'lim ko'rsatkichlari bo'yicha to'rtinchi o'rinda turadi. Dori preparatlariga nojo'ya reaksiyalarni oldini olish maqsadida ularni metabolizmida qatnashuvchi oqsillar genlaridagi polimorfizmlarni aniqlash optimal dori preparatlarini va ularning dozasi tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yirik ilmiy tadqiqot markazlarida dori preparatlari va ularning metabolizmi hamda ta'sir etish mexanizmlari tadqiq qilinmoqda. Ilmiy markazlar tomonidan yaratilgan ma'lumotlar bazasida preparatlarni metabolizmida ishtirok etuvchi oqsillar, ularni kodlovchi genlar va polimorfizmlari aks etgan. Nufuzli klinik markazlarda bemorlarni preparatlarga sezgirligini aniqlash maqsadida molekulyar-genetik test o'tkaziladi. Rivojlangan davlatlarda dori preparatiga sezuvchanlikni aniqlashning molekulyar-genetik test sistemalari ishlab chiqarilmoqda. Test natijalariga ko'ra, dori preparatini dozasi, qabul qilish tartibi individual tarzda belgilanadi. Preparatlar metabolizmida qatnashuvchi molekulyar-genetik markerlar polimorfizmlarini uchrashi etnik jihatdan farqlanadi. Shuning uchun turli davlatlar aholisi uchun spetsifik test sistemalari yaratilmoqda.

O'zbekistonda turli kasalliklarni molekulyar-genetik skrining usullari yo'lga qo'yilgan. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan tadbirlar asosida ma'lum natijalarga, ya'ni kasalliklarni rivojlanishida marker genlar va ularning polimorfizmlarini aniqlashga erishildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasida "...ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish"¹ vazifalari belgilab berilgan. Shu munosabat bilan, odamlarda dori preparatlarini metabolizmida ishtirok etuvchi marker genlaridagi polimorfizmlarni hamda qondagi metabolitlarni aniqlash individual terapiya uchun farmakogenetik testlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-son "O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi PF-4947-sonli farmoni

mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI "Tibbiyot va farmakologiya" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Amerikalik olimlar (Motulsky A.G. 1957; Kalow W. 1965) terapiyaga genetik omillarni tadqiq qilgan. Qator olimlar tomonidan dori preparatlarni organizmda metabolizmi tezligi, insonlarni preparatlarga sezgirligini genetik faktorlarini tavsiflagan (Ingelman-Sundberg M. 2005, Zanger U.M. va boshqalar; Sakuyama K. va boshqalar, 2008). Dori preparatlarini metabolizmida qatnashuvchi sitoxrom P450 2D6 fermenti va uni kodlovchi gen polimorfizmlarini preparat metabolizmi tezligiga hamda doriga nojo'ya ta'sirini tahlil qilingan (Stamer, U. M. va boshq., 2010; Leppert W., 2011; Madadi P. va boshq., 2012). Preparatlarni transportida ishtirok etuvchi P-glikoprotein oqsili va uni kodlovchi MDR1 geni polimorfizmlari bilan plazmada digoksinning kontsentratsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan (Hoffmeyer S. va boshqalar, 2000). Bir qancha meta-tahlillarda MDR1 geni polimorfizmlarini uchrashi turli etnik guruhlarda xilma-xil ekanligi ko'rsatilgan (Kimchi-Sarfaty C., 2007; Sai K. va b., 2003). Xitoy olimlari P-glikoproteinining funktsiyasi va uning dori preparatlarini metabolizmidagi ahamiyatini aniqlagan (Li Y.H. va boshqalar, 2006; Zhou S.F., 2008;). Metabolitlarni va ularning organizmdagi vazifasini Kirchmair va b. (2013) va Canfield C.A. (2019) tadqiq qilgan. David G. Le Couteur va boshqalar (2020) aminokislotalar darajasining yoshga ta'sirini ko'rishdi, Manuela J. Rist va boshqalar (2017) odamda jins va yosh bilan bog'liq metabolik ko'rsatkichlarni tahlil qilgan.

MDH mamlakatlarida P-glikoproteinni ingibirlash yo'li bilan onkologik kasalliklarda dori preparatlariga rezistentlikni pasayishiga erishilgan (Yakusheva, Shulkin va boshq., 2014). Rossiyalik olimlar tomonidan bemorlarda beta-blokatorlar, antipsixotiklarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasiga CYP2D6 fermentini gen polimorfizmining ta'siri aniqlandi (Shumkov va b., 2014; Kurilev A.A. va b., 2017).

O'zbekistonda ham dori preparatlarini metabolizmida qatnashuvchi oqsillar genlari polimorfizmlarini qisman tadqiq qilingan. Kadirova D.A. va b. (2022) onkologik bemorlarda kimyoterapiyaning samaradorligini aniqlashda MDR1 geni polimorfizmlarining ahamiyatini tavsiflagan. G.S.Ochilovanning (2022) tadqiqotida oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda MDR1 geni polimorfizmlari bilan assotsiatsiyasi ko'rsatilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar sog'lom insonlarda populyatsion doirada o'tkazilmaganligi sababli natijalarni populyatsion statistik tahlili yetarli emas. Shuningdek, shartli sog'lom insonlarda metabolitlar va ularning molekulyar-genetik markerlar bilan assotsiatsiyasi tahlil qilinmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Biofizika va

biokimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170930146 “Dori preparatlariga sezgirlikni aniqlashga qaratilgan potentsial molekulyar-genetik markerlar panelini ishlab chiqish” (2018-2020 yillar), va Ilg‘or texnologiyalar markazining PZ-20170930146-12 “Farmakogenetik markerlarni testlash uchun diagnostikumlar ishlab chiqish” (2018-2020-yillar) mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi dori preparatlariga sezuvchanlikning molekulyar-genetik markerlarini uchrash chastotasini va metabolom profilni tadqiq qilish.

Tadqiqotning vazifalari:

CYP2D6 genining C100T polimorfizmi bo‘yicha genotiplar va allellarning uchrash chastotasini o‘rganish;

shartli sog‘lom odamlarning o‘rganilayotgan namunalarda MDR1 geni polimorf markerlarining allellari va genotiplarining tarqalishini tadqiq qilish va bu genlarning O‘zbekiston aholisida dori preparatlari metabolizmiga qo‘shgan hissasini aniqlash;

shartli sog‘lom odamlarda klinik ahamiyatga ega bo‘lgan metabolik biomarkerlarni tadqiq qilish;

dori preparatlari metabolizmi va transportida ishtirok etuvchi marker genlar polimorfizmlari bilan metabolitlarning assotsiatsiyasini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida shartli sog‘lom (irsiy va surunkali kasalliklari bo‘lmagan, 6 oy davomida infeksiyon kasalliklar bilan kasallanmagan) insonlarning qon va DNK namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti CYP2D6 va MDR1 genlari polimorfizmlarining uchrash chastotasini, shuningdek, qon plazmasidagi metabolitlarni aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada DNKni ajratib olish usuli, spektrofotometriya, genlarning amplifikatsiyasi (polimeraza zanjir reaksiyasi – PZR, PCR - polymerase chain reaction), restriksion fragmentlar uzunligini polimorfizmi (RFLP - Restriction fragment length polymorphism), gel-elektroforez, yadro magnit rezonansi (YaMR) kabi biokimyoviy va molekulyar-genetik metodlar, shuningdek statistik dasturlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shartli sog‘lom odamlarda CYP2D6 (C100T) va MDR1 (C1236T, G2677T/A, C3435T) genlarining polimorfizmlari bo‘yicha genotip va allellarini uchrash chastotalari aniqlandi;

ilk marta yadro magnit rezonansi metodi yordamida shartli sog‘lom odamlarning ba‘zi metabolitlari tahlil qilindi;

ayrim metabolitlarning (leytsin, alanin, atsetat, glikoprotein (atsetillar), pirouzum kislota, glutamin, kreatinin, prolin, glyukoza, formiat) kontsentratsiyasi yoshga qarab ortib borishi aniqlandi;

dori preparatlarini metabolizmida (CYP2D6) va transportida (MDR1) ishtirok etadigan genlar polimorfizmlari (C100T, C1236T, G2677T/A, C3435T) bilan metabolitlarni bog‘liqligi o‘rganildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dori preparatlari metabolizmi tezligini belgilab beruvchi CYP2D6 genining C100T polimorfizmi bo'yicha genotiplarini aniqlash imkoniyati yaratildi. Bu esa klinikalarda bemorlarga dori preparati dozasi belgilashda asos bo'ladi;

dori preparatini transporterining MDR1 marker geni C1236T, C3435T polimorfizmlari bo'yicha alternativ allellarini O'zbekiston aholisida yuqori chastotada uchrashi aniqlandi. Shu sababli, ushbu polimorfizmlarni turli kasalliklar terapiyasida farmakogenetik test uchun marker sifatida olish mumkin;

shartli sog'lom odamlarning metabolitlar tahliliga asosan ularni yoshga, jinsga bog'liq holda o'zgarishi isbotlandi va shunga ko'ra ular turli kasalliklar bilan og'rigan insonlarni metabolizmi bilan taqqoslashda va populyatsion metabolom tadqiqotlarida etalon sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot natijalari zamonaviy biokimyoviy, molekulyar-biologik va molekulyar-genetik tadqiqot usullari yordamida olinganligi bilan tasdiqlanadi. Natijalar tahlillari Hardi-Vaynberg, Manna-Uitni, Kraskel-Uollis, SciPy dasturlar paketi kabi statistik dasturlar yordamida amalga oshirilgan hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi. Natijalarning ishonchliligi ularning milliy va xalqaro konferensiyalarda muhokama qilinishiga, shuningdek, tadqiqot natijalarining ilmiy jurnallarda nashr etilishiga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda yashovchi shartli sog'lom odamlarda CYP2D6 geni C100T, MDR1 geni C1236T, C3435T polimorfizmlari alternativ allellarining uchrash chastotasi yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Metabolitlarni aniqlashda foydalanilgan yadro magnit rezonansi metodi o'zlashtirildi. Metabolitlarning CYP2D6 geni C100T polimorfizmi, MDR1 geni C1236T, G2677T/A polimorfizmlari genotiplari bilan assotsiatsiyasi kuzatildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, P-glikoprotein transporter oqsili uchun mas'ul bo'lgan MDR1 genining (C1236T, C3435T) polimorfizmlarini genotiplash natijasida dori metabolitlari odamlarning taxminan 9 foizida hujayradan maksimal darajada zararsiz chiqariladi va boshqa odamlarda dori metabolitlarini jigar hujayralarida uzoq vaqt qolishi natijasida intoksikatsiya kuzatilishi mumkin. Ushbu tahlil kelajakda bemorlarga dori preparatlari va ularning dozalarini tanlashda amaliy yordam berishi mumkin. Shuningdek, O'zbekiston aholisida CYP2D6 genining C100T, MDR1 genining C1236T va C3435T polimorfizmlari alternativ allellarining uchrash chastotasi yuqoriligi sababli klinikalarda dori preparatlariga sezuvchanlikni aniqlashda marker sifatida olish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dori preparatlariga sezuvchanlikning molekulyar-genetik va metabolik markerlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

PCR-RFLP protokollaridan foydalangan holda P450 sitoxromini va transporter oqsilini polimorfizmlari genotiplarini aniqlash natijalari Gothenburg universitetining "Department of Molecular and Clinical Medicine" loyihasida qo'llanilgan (Gyoteburg universitetining 2023 yilning 12 maydagi

ma'lumotnomasi). Natijada, PCR-RFLP reaksiyalarini optimallashtirishga sarflangan vaqtni tejash mumkin bo'ldi, shuningdek P450 sitoxromi va transporter oqsil polimorfizmlarini farmakogenetik testlar uchun dori preparatlari metabolizmining muhim molekulyar-genetik markerlari sifatida ishlatilishi mumkin;

dori preparatlarini metabolizmida ishtirok etuvchi oqsillar genlari polimorfizmlarini aniqlash uchun praymerlar, fermentlar, optimizatsiya qilingan reaksiya sharoitlaridan va natijalarni interpretatsiya qilish hamda genotiplarni uchrash chastotasi statistikasidan FZ-201811215 "O'zbek populyatsiyasidagi yurak qon-tomir kasalliklari bilan kasallangan shaxslarni personallashtirilgan davolashda molekulyar-genetik markerlarni qo'llash" mavzusidagi loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma'lumotnomasi). Natijada, yurak-qon tomir kasalliklari bemorlarida dori preparatlari metabolizmida ishtirok etuvchi oqsillarni genlari polimorfizmlari bo'yicha genotiplandi va allellar uchrash chastotasi aniqlandi. Shuningdek, mazkur ilmiy natijalardan dori preparatlariga sezuvchan molekulyar-genetik tashxislash orqali bemorlarga dori preparatlarini va ularning dozalarini individual tarzda belgilash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqolalar, jumladan, 3 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, yakuniy qism, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli qisqartmalar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Organizmida dori preparatlarining metabolizmi va unda ishtirok etuvchi markerlar (fermentativ va genetik)**" deb nomlangan birinchi bobida dori preparatlari metabolizmining xususiyatlari har tomonlama tahlil qilinib, mavjud holatga ilmiy nuqtai nazardan baho berilgan. Ushbu bobda dori preparatlari metabolizmining bosqichlari, metabolizmga ta'sir etuvchi omillar, molekulyar-genetik markerlarni roli va ularning dori preparatlari metabolizmiga ta'sir

mexanizmlari ochib berilgan adabiyotlar sharhi keltirilgan. Dori preparatlari metabolizmida metabolik markerlarning roli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Molekulyar-genetik va metabolik markerlarni aniqlashning zamonaviy usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot olib borish bosqichlari, ularning bajarilishida foydalanilgan materiallar va uslublar keltirilgan. Xususan, O‘zbekistonda yashovchi 18-80 yoshdagi ($M=41,3\pm 15,4$) 342 nafar shartli sog‘lom (surunkali va irsiy kasalliklari bo‘lmagan, 6 oy davomida infeksiyon kasalliklar bilan kasallanmagan) shaxslarni qon namunalari o‘rganildi. Ilmiy tadqiqotni bajarishda DNK-ekstraksiyasi, gel-elektroforez, spektrofotometriya, polimeraza zanjiri reaksiyasi (PZR, PCR – polymerase chain reactions), restriksion fragmentlar uzunligini polimorfizmi (RFLP - Restriction fragment length polymorphism), yadro magnit rezonansi (YaMR) va statistik dasturlardan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning **“Dori preparatlarining metabolizmida ishtirok etuvchi MDR1 va CYP2D6 genlarini uchrash chastotalarining molekulyar-genetik tahlili”** nomli uchinchi bobida ishtirokchilarning antropometrik (BMI – (body mass index) tana massasi indeksi), ba’zi fiziologik (SAB – sistolik arterial bosim, DAB – diastolik arterial bosim) va biokimyoviy (glyukoza, umumiy xolesterin) ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalari, CYP2D6 genining C100T, MDR1 geni C1236T, G2677T/A, C3435T polimorfizmlarining uchrash chastotasi, shuningdek ishtirokchilarda MDR1 geni polimorfizmlari genotiplarining kombinatsiyasi yoritilgan. Ushbu polimorfizmlar mamlakatimizda keng tarqalgan yurak-qon tomir va onkologik kasalliklarda qo‘llaniladigan dori preparatlarining metabolizmida ishtirok etadi. CYP2D6 bir qator yurak-qon tomir kasalliklari va ruhiy kasalliklarni davolashda keng qo‘llaniladigan dorilar (β -blokatorlar, antiaritmiklar, analeptiklar, antidepressantlar va analgetiklar)ning metabolizmida ishtirok etadi. P-glikoproteinining substratlari saratonga qarshi dori vositalari, yurak preparatlari, OIV-proteaza ingibitorlari, immunodepressantlar, antibiotiklar, sitostatiklardir.

Antropometrik, ba’zi fiziologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma‘lumotlarni tahlil qilish natijasida jins (1-jadval) va yosh guruhlari (2-jadval) o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlandi. Ishtirokchilar uchta yosh guruhlariga bo‘lingan: 131 nafar yosh ko‘ngillilar (18 yoshdan 30 yoshgacha) ($M=25,77\pm 2,91$), 108 nafar o‘rta yoshdagi ko‘ngillilar (31 yoshdan 54 yoshgacha) ($M=41,53\pm 6,83$), 103 nafar keksa yoshdagi ko‘ngillilar (55 yosh va undan katta) ($M=61,24\pm 6,4$). Ulardan 153 nafari erkak ($M=39,81\pm 14,7$) va 189 nafari ayollar ($M=42,54\pm 15,96$).

Ushbu tadqiqot uchun tanlangan ko‘ngillilarning o‘rganilgan ma‘lumotlarini tahlil qilish natijasida BMI, glyukoza va umumiy xolesterinning o‘rtacha qiymatlari erkaklar va ayollar o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli darajada farq qilmasligi aniqlandi. Biroq, erkaklarda SAB va DAB ning o‘rtacha qiymatlari (mos ravishda $116,83 \pm 6,55$; $78,3 \pm 8,5$) ayollarga qaraganda statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ($108,44 \pm 11,96$; $72,6 \pm 9,78$) ($p<0,05$) ekanligi kuzatildi.

1-jadval.**O'rganilayotgan ko'rsatkichlarning jins bo'yicha taqsimlanishi (M±SE)**

Parametrlar	Erkaklar (n=153)	Ayollar (n=189)	P-value	U kriteriy
BMI, kg/m ²	25,67 ± 4,07	25 ± 4,91	0,71138	48888,5
SAB, mm rt.st.	116,83 ± 6,55	108,44 ± 11,96	0,00001	5441
DAB, mm rt.st.	78,3 ± 8,5	72,6 ± 9,78	0,00001	6059,5
Glyukoza, mmol/l	4,94 ± 1,03	4,3 ± 0,77	0,32708	52832,5
Umumiy xolesterin, mmol/l	3,81 ± 0,74	3,85 ± 0,76	0,08914	51195

2-jadval.**O'rganilayotgan ko'rsatkichlarning yosh guruhleri bo'yicha taqsimlanishi (M±SE)**


Parametrlar	18-30 yosh (n=131)	31-54 yosh (n=108)	55+ yosh (n=103)	P-value	H kriteriy
BMI, kg/m ²	22,72±3,78	25,88±3,68	28,19±4,53	0,00187	12,5672
SAB, mm rt.st.	107,17±11,89	111,42±12,75	117±10,54	0,00001	26,2696
DAB, mm rt.st.	72,22±10,72	74,88±10,05	77,66±7,2	0,0005	15,202
Glyukoza, mmol/l	4,33±0,83	4,34±1,11	4,5±0,68	0,00001	22,673
Umumiy xolesterin, mmol/l	3,63±0,64	3,76±0,71	4,18±0,81	0,00001	36,9622

Ko'ngillilarning yosh guruhleri bo'yicha o'rganilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish natijasida yosh ortishi bilan BMI, arterial qon bosimi, qondagi glyukoza va umumiy xolesterin miqdorining o'rtacha ko'rsatkichlari statistik jihatdan ahamiyatli oshib borishi aniqlandi ($p < 0,05$). Bu farqlarni yoshning ortishi natijasida inson organizmidagi metabolizm o'zgarishi bilan izohlash mumkin.

CYP2D6 genining C100T, MDR1 genining C1236T, G2677T/A, C3435T polimorfizmlarini genotiplash maqsadida PZR amplifikatsiyasi va RFLP analizi amalga oshirildi.

CYP2D6 genining C100T polimorfizmi bo'yicha ko'ngillilarni (n=280) genotiplash natijasida quyidagi chastotalar aniqlandi: CC - 65,71%, CT - 31,79%, TT - 2,5% (1-rasm, a). Genotip va allellarning taqsimlanishi Xardi-Vaynberg muvozanatiga mos keldi ($\chi^2=0,97$; $p=0,32$). C allelining chastotasi 82%, T allelini chastotasi esa 18%ni (1-rasm, b) tashkil qildi.


Shuningdek, ushbu polimorfizmi jins bo'yicha genotip va allellarining tarqalishi tahlil qilindi. Xi-kvadrat testi erkaklar va ayollar guruhleri o'rtasida genotiplarning uchrash chastotalari farq qilmasligini ko'rsatdi, $\chi^2(1, N=280) = 1,12$; $p=0,57$ (χ^2 (erkinlik darajasi (df – degree of freedom), N= namunalar hajmi) = xi-kvadrat statistik ko'rsatkichi, p=p-qiymati).



1-rasm. CYP2D6 geni C100T polimorfizmining genotiplari (a) va allellarining (b) tarqalishi (n=280).

Shunday qilib, CT, TT (GA, AA) genotipiga ega bo'lgan shaxslarda CYP2D6 fermenti faolligining pasayishi kuzatiladi va ularga individual holda, dori preparatlarining pastroq dozalarini tanlash tavsiya etiladi. Chunki, standart dozani qo'llash organizmda dori preparatining to'planishiga hamda nojo'ya reaksiyalarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bizning tadqiqotimizda CT va TT genotiplari 96 (34,3%) namunada aniqlangan. O'zbekiston populyatsiyasida CYP2D6 genining C100T (rs1065852) polimorfizmi minor allelining (T) uchrash chastotasi yuqori bo'lganligi sababli, ushbu polimorfizmni yurak qon-tomir va ruhiy kasalliklarni davolashda qabul qilinadigan dori preparatlari (β -blokatorlar, antiaritmiklar, analeptiklar, antidepressantlar va analgetiklar) metabolizmini muhim biomarkeri sifatida farmakogenetik testlarda qo'llash uchun tavsiya qilinishi mumkin.

MDR1 genining C1236T polimorfizmi bo'yicha genotiplash natijalariga ko'ra, CC genotipining chastotasi 16%, CT – 51% va TT – 33% ni tashkil qildi (2-rasm, a). Genotip va allellarning uchrash chastotalarini tahlili Xardi-Vaynberg muvozanatiga mos keladi ($\chi^2=0,99$; $p=0,31$).




2-rasm. MDR1 genining C1236T polimorfizmining genotiplari (a) va allellarini (b) uchrash chastotalarini taqsimoti (n=340).

Geterozigota CT genotipining uchrash chastotasi gomozigota (normal) CC genotipiga qaraganda 3,2 marta, TT genotipi esa 2,07 marta ko'p ekanligi aniqlandi. C allelining uchrash chastotasi 41%, T alleli esa 59% ni tashkil qildi (2-rasm, b). Alternativ T allelining uchrashi C allelga qaraganda 18%ga ko'proq ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, MDR1 geni C1236T polimorfizmini jins bo'yicha uchrash chastotalarining tarqalishi o'rganildi. Tadqiqot natijasida ko'ngillilarning jins bo'yicha taqsimotiga ko'ra ushbu polimorfizmni genotip va allellarining chastotasi o'rtasida sezilarli farqlar topilmadi. Xi-kvadrat testi erkaklar va ayollar guruhlarida o'rtasida genotiplarning uchrash chastotalari farq qilmasligini ko'rsatdi ($\chi^2=0,47$, $p=0,78$.)

Namunalarda MDR1 geni G2677T/A variantining uchrash chastotasini aniqlash uchun genotiplar tahlili o'tkazildi. Natijada, GG genotipi 89%, GA/T – 9%, TT/AA – 2%ni tashkil qildi (3-rasm, a). Genotip chastotalarini taqsimlanishi Xardi-Vaynberg muvozanatiga mos kelmasligini ko'rsatdi ($p=0,005$).




3-rasm. MDR1 genining G2677T/A polimorfizmining genotiplari (a) va allellari (b) taqsimoti.

Gomo- va geterozigotali shaklda G allelining uchrash chastotasi 94%ni, A/T allelining chastotasi – 6%ni tashkil qildi (3-rasm, b).

Shu bilan birga tadqiqotda G2677T/A polimorfizmini jins bo'yicha uchrash chastotalarining taqsimlanishi o'rganildi. Xi-kvadrat testi erkaklar va ayollar guruhlarida o'rtasida genotiplarning uchrash chastotalari farq qilmasligini ko'rsatdi ($\chi^2=1,59$; $p=0,45$).

MDR1 geni C3435T polimorfizmini bo'yicha namunalarni genotiplash natijasida quyidagi genotiplar aniqlandi: CC – 14%; CT – 51%; TT – 35% (4-rasm, a). Genotiplarni uchrash chastotalarining taqsimlanishi Xardi-Vaynberg muvozanatiga mos keldi ($p=0,23$).




4-rasm. MDR1 geni C3435T polimorfizmini genotiplari (a) va allellari (b) taqsimoti (n=342).

Natijalarga ko'ra, CT genotipining uchrash chastotasi CC genotipiga qaraganda 3,6 marta, TT esa 2,5 marta ko'p uchraganligi aniqlandi. C allelining gomo- va heterozigotali shaklda uchrash chastotasi 39%ni, T allelining chastotasi 61%ni tashkil etdi (4-rasm, b). C3435T polimorfizmi T allelining uchrash chastotasi C allelining chastotasidan 22% yuqori ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijasida ko'ngillilarni jins bo'yicha taqsimotiga ko'ra, genotiplar va allellar chastotasi o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ($\chi^2=0,42$; $p=0,8$).

Ushbu tadqiqotda MDR1 genining C3435T, G2677T/A va C1236T polimorfizmlarining birgalikda uchrashi ham baholandi. Natijada CT/GG/CT (25,9%), TT/GG/TT (17,3%), CT/GG/TT (11,5%), TT/GG/CT (10,6%) genotiplarining kombinatsiyalari ko'proq uchrashi aniqlandi (5-rasm).




5-rasm. MDR1 genining C3435T, G2677T/A va C1236T polimorfizmlari genotiplari kombinatsiyasining uchrash chastotasi (n=340).

Biroq, bir vaqtning o'zida uchta polimorfizm bo'yicha (TT/AA/TT) alternativ allellarni tutgan gomozigota variantlari kuzatilmadi. Tahlil qilingan MDR1 genining polimorfizmlari bo'yicha referens allellarni tutgan CGC gaplotipining uchrash chastotasi 6,2%ni tashkil etdi. Bu shuni anglatadiki, ko'ngillilarning 6 foizida ksenobiotiklar va sitotoksinlar hujayradan tashqariga maksimal samaradorlik bilan chiqariladi. Ko'ngillilarning 94 foizida esa P-gp oqsilini ekspressiyasining pasayishi kuzatiladi, bu esa hujayrada oqsilning yetishmovchiligiga, to'qima suyuqligi, safro, siydikka toksinlar va ksenobiotiklarni hujayradan tashqariga chiqarish intensivligini pasayishi hamda natijada to'qimalarning intoksikatsiyasiga olib keladi.

Xi-kvadrat statistik testi natijasida biz MDR1 genining C1236T va C3435T polimorfizmlari bir-biri bilan bog'liqligini aniqladik ($p=0,000003$). C1236T va

C3435T polimorfizmlari genotiplarining kombinatsiyasi natijalariga ko'ra, odamlarning 8,9 foizi normal genotiplarga (CC/CC) ega ekanligi aniqlandi. Qolgan 91,1% odamlarda P-glikoprotein oqsilining ekspressiyasi pasayishi mumkin (6-rasm).




6-rasm. MDR1 genining C1236T va C3435T polimorfizmlari bo'yicha genotiplar kombinatsiyasining uchrash chastotasi.

CT/CT (34,6%), TT/TT (20,7%) genotiplarining kombinatsiyasi boshqa kombinatsiyalarga qaraganda ko'proq uchraydi, bu C1236T va C3435T polimorfizmlarining birgalikda irsiylanishini ko'rsatadi.


Shunday qilib, MDR1 geni C1236T, C3435T polimorfizmlarining uchrash chastotasi yuqori bo'lgani uchun, ular yurak-qon tomir va onkologik kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan farmakogenetik testda dori preparatlari (saratonga qarshi vositalar, yurak preparatlari, OIV-proteaza ingibitorlari, immunodepressantlar, antibiotiklar, sitostatiklar) metabolizmining molekulyar-genetik markerlari sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Dissertatsiyasining "**Metabolitlarni va uning MDR1 va CYP2D6 genlarining polimorfizmlari bilan assotsiatsiyasini o'rganish**" nomli to'rtinchi bobida metabolitlarni aniqlash va tahlil natijalari, yosh va jins guruhlari o'rtasidagi metabolitlarning statistik jihatdan ahamiyatli farqlari, metabolitlarning o'zaro korrelyatsiyasi, metabolitlarni CYP2D6 va MDR1 genlarining polimorfizmlari bilan assotsiatsiyasi keltirilgan. Metabolitlarni aniqlash YaMR metodi yordamida amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish uchun 266 ko'ngillilarning qon plazmasidan foydalanildi. YaMR analizi natijasida plazmada 27 ta metabolit aniqlandi. Metabolom tahlili shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan 27 ta metabolitdan faqat 10 ta (37%) metabolitlarni kontsentratsiyasi yosh guruhlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlandi, 17 tasi (63%) esa farq qilmadi.

Qon plazmasida leytsin, alanin, atsetat, glikoprotein (atsetillar) (7-rasm), pirouzum kislotasi, glutamin, kreatinin, prolin (8-rasm), glyukoza va formiat (9-rasm) kabi metabolitlarning kontsentratsiyasi yosh guruhlari o'rtasida farqlanishi kuzatildi ($p < 0,05$).




7-rasm. Turli yosh guruhlaridagi ko'ngillilar o'rtasida qonda leytsin (a), alanin (b), atsetat (c), glikoproteinlar (d) konsentratsiyasining taqsimlanishi grafiklari.



8-rasm. Turli yosh guruhlaridagi ko'ngillilar o'rtasida qonda pirouzum kislota (a), glutamin (b), kreatinin (c), prolin (d) konsentratsiyasining taqsimlanishi grafiklari.

Shunday qilib, metabolitlarning yoshga qarab qanday o'zgarishini yaxshiroq tushunish yoshning kasallik rivojlanishi xavfiga ta'sir qilish mexanizmlarini aniqlash


va ma'lum bir kasalliklarning dastlabki bosqichlarini ko'rsatadigan yuqori xavfga ega metabolom profillarini identifikatsiya qilishni osonlashtirishi mumkin.



9-rasm. Turli yosh guruhlaridagi ko'ngillilar o'rtasida qondagi glyukoza (a), formiat (b) konsentratsiyasining taqsimlanishi grafiklari.

O'zbekistonda yashovchi turli yoshdagi odamlarda metabolitlar konsentratsiyasining o'zgarishini yoshga bog'liq kasalliklarning rivojlanish xavfini kuzatish uchun indikator sifatida foydalanish mumkin. Ushbu tadqiqot natijalarining ishonchliligini tasdiqlash uchun keyingi tadqiqotlarni ko'proq namunalar bilan o'tkazish talab qilinadi.

Ushbu tadqiqotda metabolitlar konsentratsiyasining jinsga bo'g'liq holda o'zgarishi tahlil qilindi.




10-rasm. Erkaklar va ayollar o'rtasida qonda leytsin (a), izoleytsin (b), kreatinin (c), kreatin (d) konsentratsiyasining taqsimlanishi grafiklari.

Tadqiqot natijasida 266 nafar ko'ngillilarning qon plazmasida aniqlangan 27 ta metabolitdan bir nechta metabolitlar erkaklar (n=117) va ayollar (n=149) o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq qilishi aniqlandi (10-rasm). Erkaklarda leytsin ($0,21 \pm 0,04$ ppm), izoleytsin ($0,19 \pm 0,05$ ppm) va kreatinin ($0,15 \pm 0,03$ ppm) metabolitlarining o'rtacha konsentratsiyasi ayollarnikiga qaraganda ($0,18 \pm 0,04$; $0,15 \pm 0,06$; $0,12 \pm 0,03$ ppm, mos ravishda) yuqori ekanligi aniqlandi ($p=0,01$; $p=0,04$; $p=0,007$). Biroq, kreatin konsentratsiyasi ayollarda ($0,07 \pm 0,04$ ppm) erkaklarnikiga qaraganda ($0,05 \pm 0,03$ ppm) statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori ekanligi kuzatildi ($p=0,015$).

Yuqorida tavsiflangan metabolitlarning funktsional rolini ushbu tadqiqot bilan izohlab bo'lmaydiganligi sababli, turli xil tana tuzilishiga, xatti-harakatlar yoki turmush tarzidagi farqlarga olib keluvchi erkaklar va ayollar o'rtasidagi gormonal farqlarni metabolitlar konsentratsiyasi o'zgarishini asosiy sababi deb taxmin qilish mumkin. Shunday qilib, ushbu tadqiqot natijalari va boshqa tadqiqotlardagi kuzatuvlarga asoslanib, o'rganilayotgan populyatsiyalarga asoslangan barcha metabolik tahlillar uchun jinsni potentsial omil sifatida hisobga olish kerak.

Ushbu tadqiqotda metabolitlarning bir-biri bilan korrelyatsiyasi ham o'rganildi. Tadqiqot natijasida valin metabolitining leytsin bilan ($R^2=0,64$), formiatning atsetat ($R^2=0,64$) bilan o'zaro bog'liqligi aniqlandi (11-rasm).



11-rasm. Valinning leytsin bilan (a), formiatning atsetat (b) bilan konsentratsiyasi o'rtasidagi korrelyatsiyasi grafigi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotda odam qon plazmasidagi turli metabolitlarning konsentratsiyalari o'lchandi va ularning ba'zilari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli korrelyatsiyalar topildi. Ya'ni, valin va leytsin o'xshash metabolik yo'llari va oqsil sintezidagi rollari tufayli o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Shuningdek, formiat va atsetat metabolitlari substratlarning oksidlanishidan kelib chiqadi va metabolism natijasida hosil bo'ladigan atsetil-KoA shaklidagi umumiy mahsulot tufayli bir-biri bilan korrelyatsiyasi kuzatildi. Bu korrelyatsiyalar inson organizmidagi metabolismning turli tomonlari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi va fiziologik va patologik ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot insonning metabolik profili haqidagi

bilimlarni kengaytiradi va organizmdagi metabolitlarning rolini ko'proq o'rganish uchun asos bo'lishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda biz birinchi marta metabolitlarni dori preparatlariga sezuvchanlik genlarining polimorfizmlari bilan assotsiatsiyasini o'rgandik. Assotsiatsiyani aniqlash uchun ANOVA dispersion tahlilidan foydalanildi. Natijada, bir nechta metabolitlar statistik jihatdan ahamiyatli darajada o'rganilgan polimorfizmlar bilan assotsiatsiyasi aniqlandi. Ya'ni, atsetat metaboliti CYP2D6 genining C100T polimorfizmi ($p=0,003$), pirouzum kislotasi MDR1 genining G2677T/A ($p=0,003$) va C1236T ($p=0,046$), CYP2D6 genining C100T ($p=0,001$) polimorfizmlari bilan bog'liqligi aniqlandi. Shuningdek, asparagin MDR1 genining C1236T polimorfizmi ($p=0,03$), ornitin CYP2D6 genining C100T polimorfizmi ($p=0,02$), metanol MDR1 genining G2677T/A polimorfizmi ($p=0,000009$), glyukoza, formiat va glutamin CYP2D6 genining C100T polimorfizmi bilan assotsiatsiyasi kuzatilgan ($p=0,006$; $p=0,0003$; $p=0,02$).

3-jadval

Metabolitlarning CYP2D6 va MDR1 genlari polimorfizmlari bilan assotsiatsiyasi

Metabolit	Polimorfizm	P-value
Atsetat	C100T (CYP2D6 geni)	0,003
Pirouzum kislota	G2677T/A (MDR1 geni)	0,003
	C1236T (MDR1 geni)	0,046
	C100T (CYP2D6 geni)	0,001
Asparagin	C1236T (MDR1 geni)	0,03
Ornitin	C100T (CYP2D6 geni)	0,02
Metanol	G2677T/A (MDR1 geni)	0,000009
Glyukoza	C100T (CYP2D6 geni)	0,006
Formiat		0,0003
Glutamin		0,02

Tadqiqotda atsetat va CYP2D6, pirouzum kislotasi va P-gp/CYP2D6, asparagin va P-gp o'rtasida assotsiatsiya aniqlandi. Biroq, bu metabolitlar va oqsillar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud emas. Atsetat kamdan-kam hollarda CYP2D6 uchun kofaktor bo'lishi mumkin. Piruvat kislorodning faol shakllarini kamaytirish orqali P-gp ni oshirishi mumkin. Asparagin glikozillanish orqali P-gp ga ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqotda ornitin, formiat, glutamin va CYP2D6, metanol va P-gp, glyukoza va CYP2D6 o'rtasida bog'liqlik aniqlandi. Biroq, bu metabolitlar va oqsillar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar mavjud emas. Metanol P-gp ni ingibirlashi natijasida kimyoterapevtik dorilarning hujayrada to'planishiga olib kelishi mumkin. Glyukoza CYP2D6 ga eritrotsitlarni oksidlovchi stressdan himoya qiluvchi ferment G6PD (glyukoza-6-fosfatdegidrogenaza) orqali ta'sir qilishi mumkin. Ushbu metabolitlarning CYP2D6 yoki P-gp ga ta'siri va mexanizmlarini aniqlash uchun ko'proq tadqiqotlar talab etiladi.

Shunday qilib, metabolitlar va ksenobiotiklarning parchalanishini o'rganish dori preparatlari metabolizmi va kimyoviy toksikologiya fanining muhim qismi

hisoblanadi. Chunki bu ma'lumotlar kimyoviy birikmalarning ijobiy yoki salbiy ta'sirining molekulyar mexanizmlarini tushunish uchun ilmiy asos yaratadi.

XULOSA

1. CYP2D6 geni C100T polimorfizmining klinik jihatdan ahamiyatli CT va TT genotiplari odamlarning 34 foizida aniqlangan. T minor allelining tashuvchilarida debrizoxin 4-gidroksilaza fermentini faolligi pasayishi mumkin.

2. MDR1 genining C1236T, G2677T/A, C3435T polimorfizmlarini genotiplash natijasida O'zbekiston aholisida C1236T, C3435T polimorfizmlar bo'yicha alternativ allellarining uchrash chastotasi yuqori ekanligi aniqlandi. C1236T va C3435T polimorfizmlari genotiplarining kombinatsiyasi natijalariga ko'ra, faqat 8,9% odamlarda normal genotiplar (CC/CC) mavjudligi aniqlandi. 91,1% odamlarda preparatning odatdagi dozasi organizmda intoksikatsiyaga olib kelishi mumkin.

3. Ko'ngillilarning qon plazmasidagi 27 ta metabolitning tahlili yosh guruhlari ($p < 0,05$) va jins ($p < 0,05$) o'rtasida metabolitlarning konsentratsiyalari bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farqni ko'rsatdi. Metabolitlarning o'zaro korrelyatsiyasi tahlili natijasida valin leytsin ($R^2 = 0,64$) bilan, formiat atsetat ($R^2 = 0,64$) bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalar turli kasalliklarda metabolitlar darajasini solishtirish hamda populyatsion metabolom profilini o'rganish uchun referens bo'lib xizmat qilishi mumkin.

4. Tadqiqotda birinchi marta metabolitlarning dori preparatlariga sezuvchanlik genlarining polimorfizmlari bilan assotsiatsiyasini o'rganildi. Tahlil asosida atsetat metaboliti CYP2D6 genining C100T polimorfizmi, pirouzum kislota MDR1 genining G2677T/A, C1236T polimorfizmlari, CYP2D6 genining C100T polimorfizmi bilan assotsiatsiyasi aniqlandi. Shuningdek, asparaginni MDR1 genining C1236T polimorfizmi bilan, ornitinning CYP2D6 genining C100T polimorfizmi bilan, metanolning MDR1 genining G2677T/A polimorfizmi bilan, glyukoza, formiat va glutaminning CYP2D6 genining C100T polimorfizmi bilan assotsiatsiyasi ham kuzatilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.B.01.13 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БИОФИЗИКИ И
БИОХИМИИ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА
ИНСТИТУТ БИОФИЗИКИ И БИОХИМИИ**

НУРМАТОВА САИДА БАХТИЯРОВНА

**ХАРАКТЕРИСТИКА МОЛЕКУЛЯРНО-ГЕНЕТИЧЕСКИХ И
МЕТАБОЛИЧЕСКИХ МАРКЕРОВ ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ К
ЛЕКАРСТВЕННЫМ ПРЕПАРАТАМ**

03.00.01 – Биохимия

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам**

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2019.4.PhD/B384.

Диссертация выполнена в Институте биофизики и биохимии при Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.ibb-nuu.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Далимова Дилбар Акбаровна
доктор биологических наук

Официальные оппоненты:

Далимова Сурайё Нугмановна
доктор биологических наук, профессор
Убайдуллаева Хуршида Абдуллаевна
доктор биологических наук

Ведущая организация:

Институт генетики и экспериментальной биологии растений

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2023 г. в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.B.01.13 при Институте Биофизики и биохимии Национального университета Узбекистана. Адрес: 100174, г.Ташкент, Алмазарский район, Студенческий городок, улица Университетская, 174. Тел.: (+99871) 246-68-96.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Биофизики и биохимии при Национальном университете Узбекистана (зарегистрировано под № ____). Адрес: 100174, г.Ташкент, Алмазарский район, Студенческий городок, Университетская, 174. Тел.: (+99871) 246-68-96 (ibb-nuu@mail.ru).

Автореферат диссертации разослан: « ____ » _____ 2023 г.
(реестр протокола рассылки № « ____ » от « ____ » _____ 2023 г).



Сабиров Равшан Заирович
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н., академик

Позилев Маъмуржон Комилжонович
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н.

Кадирова Дилбар Абдуллаевна
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мире одной из самых серьезных проблем современной медицины является рациональная терапия (эффективная и безопасная лекарственная терапия). Согласно опубликованным статистическим данным, для 30-60% пациентов рекомендованная доза и график приема некоторых лекарств не эффективны, а примерно у 30% из них развиваются побочные реакции. По данным проведенных исследований в США 6,7% госпитализированных пациентов имеют серьезные побочные реакции на лекарства с летальностью 0,32%, то есть у госпитализированных пациентов регистрируется более 2 216 000 серьезных нежелательных реакций на лекарства, вследствие чего ежегодно встречается более чем 106 000 смертей. По таким показателям можно сказать что нежелательные реакции являются четвертой по значимости причиной смерти, опережая легочные заболевания, диабет, СПИД, пневмонию, несчастные случаи и автомобильные смерти. Для предотвращения побочных реакций на лекарства важное значение при выборе оптимальных препаратов и их дозировки имеет выявление полиморфизмов в генах белков, участвующих в их метаболизме.

В крупных исследовательских центрах мира проведены ряд исследований, лекарственных препаратов, их метаболизма и механизма действия. Научными центрами создана база данных, которая включает данные о белках, участвующих в метаболизме лекарств, их кодирующих генах и их полиморфизмах. Для определения чувствительности пациентов к лекарственным препаратам в престижных клинических центрах применяются молекулярно-генетические тесты. Они основаны на разработанных в развитых странах тест-системах, которые позволяют выявлять полиморфизмы генов, участвующих в метаболизме лекарств. По результатам анализа доза препарата и порядок его приема подбираются индивидуально для каждого пациента. Так как встречаемость полиморфизмов молекулярно-генетических маркеров различается в этническом отношении, то для жителей разных стран создаются специальные тест-системы, учитывающие их генетические особенности.

